





2021- yil yanvar-mart oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyatida jami **987,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **100,7 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2404** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **376** taga oshdi.



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % 01.04.2021
	01.04.2020- yil	01.04.2021- yil	
Namangan viloyati	2028	2404	100,0
Namangan sh.	705	757	31,5
tumanlar:			
Mingbuloq	80	78	3,2
Kosonsoy	211	270	11,2
Namangan	121	142	5,9
Norin	93	134	5,6
Pop	67	104	4,3
To'raqo'rg'on	76	106	4,4
Uychi	195	213	8,9
Uchqo'rg'on	111	154	6,4
Chortoq	140	167	6,9
Chust	141	179	7,5
Yangiqo'rg'on	88	100	4,2




Ma'lumot uchun: Viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (31,5 %), Kosonsoy tumani (11,2 %) va Uychi (8,9 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Mingbuloq tumani (3,2 %), Yangiqo'rg'on tumani (4,2 %), Poptumani (4,3 %), To'raqo'rg'on (4,4 %) tumanlarida qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **55,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 78,9 mlrd. so'mga kamaygan bo'lib, 2020- yilning mos davriga 37,8 % ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Pop tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **65,3 %** i) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-mart oylida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **68,0 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oyi ko'rsatkichiga nisbatan **6,8 %** punktga ortdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **113,4 %** ni tashkil etgan holda **672,01** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-mart
- 2020- yil yanvar-mart





Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **26,4 %** ni tashkil etdi yoki **260,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **108,3 %** ni tashkil etdi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **69,6** mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **239,6 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **918,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **132,9 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **7,1 %** va **92,9 %** ni tashkil etdi.

IQTSODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)





**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
2021- yil yanvar-mart oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Namangan viloyati	987,8	69,6	100,0	918,2	100,0
Namangan sh.	319,2	5,6	8,1	284,7	31,0
tumanlar:					
Mingbuloq	18,3	3,5	5,0	24,1	2,6
Kosonsoy	89,5	6,2	8,9	65,2	7,1
Namangan	91,0	5,1	7,3	104,5	11,4
Norin	45,2	3,5	5,0	31,2	3,4
Pop	70,9	22	31,6	29,0	3,2
To'raqo'rg'on	53,5	4	5,8	77,9	8,5
Uychi	90,3	6,7	9,6	98,0	10,6
Uchqo'rg'on	52,9	3	4,3	41,6	4,5
Chortoq	49,6	3	4,3	50,1	5,5
Chust	53,7	3,5	5,1	54,2	5,9
Yangiqo'rg'on	53,7	3,5	5,0	57,7	6,3

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-mart oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
Namangan viloyati	987,8	100,7	100,0
Namangan sh.	319,2	100,2	32,3
tumanlar:			
Mingbuloq	18,3	61,1	1,9
Kosonsoy	89,5	86,3	9,1
Namangan	91,0	101,0	9,2
Norin	45,2	112,2	4,6
Pop	70,9	136,3	7,2
To'raqo'rg'on	53,5	96,3	5,4
Uychi	90,3	100,5	9,1
Uchqo'rg'on	52,9	105,4	5,4
Chortoq	49,6	102,5	5,0
Chust	53,7	106,3	5,4
Yangiqo'rg'on	53,7	104,1	5,4

2021- yil yanvar-mart oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (312,9 mlrd. so'm) Namangan t (91,0 mlrd. so'm), Uychi (90,3 mlrd. so'm), Kosonsoy (89,5 mlrd. so'm), Pop (70,9 mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (53,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi